

## AMORTIZATSIYA QILINADIGAN AKTIVLAR VA ULARNI HISOBGA OLIHNING OBYEKTIV ZARURATI

**Aminboyev Jaloliddin Otabek o'g'li**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
mustaqil izlanuvchisi

### Annotatsiya

Mazkur maqolada amortizatsiya qilinadigan aktivlar va ularni hisobga olishning obyektiv zarurati tadqiq qilib o'rganilgan. Xususan, "amortizatsiya qilinadigan aktivlar" va "asosiy vositalar" tushunchalariga mualliflik yondashuvlari ishlab chiqilgan hamda soliq hisobi maqsadlarida amortizatsiya qilinadigan aktivlarning tarkibiy tuzilmasi taklif etilgan holda tegishli xulosalar shakllantirilgan.

**Kalit so'zlar:** amortizatsiya qilinadigan aktivlar, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, biologik aktivlar, foydalanish huquqidagi mulk, moliyaviy ijara, investitsion ko'chmas mulk.

### Аннотация

В данной статье исследуются амортизируемые активы и объективная необходимость их учета. В частности, разработаны авторские подходы к понятиям "амортизируемые активы" и "основные средства," а также сформулированы соответствующие выводы с предложением структуры амортизируемых активов для целей налогового учета.

**Ключевые слова:** амортизируемые активы, основные средства, нематериальные активы, биологические активы, имущество на праве пользования, финансовая аренда, инвестиционная недвижимость.

### Abstract

This article examines depreciable assets and the objective necessity of their accounting. In particular, author's approaches to the concepts of "depreciable assets" and "fixed assets" have been developed, and relevant conclusions have been formulated, proposing the structure of depreciable assets for tax accounting purposes.

**Keywords:** depreciable assets, fixed assets, intangible assets, biological assets, property under the right of use, financial lease, investment property.

### KIRISH

Iqtisodiyotning globalashuvi sharoitida korxonalar faoliyatining samaradorligi, raqobatbardoshligi va moliyaviy barqarorligi ko'p jihatdan amortizatsiya qilinadigan aktivlardan oqilona foydalanish, ularni buxgalteriya hisobida to'g'ri e'tirof etish va ularga doir axborotlarni moliyaviy hisobotda to'g'ri aks ettirish bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Chunki, amortizatsiya qilinadigan aktivlar korxonaning ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va boshqaruv faoliyatida uzoq muddat davomida ishtirok etib, o'z qiymatini foydali xizmat muddati davomida bosqichma-bosqich tayyor mahsulot (ish, xizmat)lar qiymatiga o'tkazadigan iqtisodiy resurslar hisoblanadi. Mazkur aktivlar iqtisodiy mohiyati jihatidan korxonaga bir martalik emas, balki uzluksiz va davriy ravishda iqtisodiy naf keltiradi, shu bilan birga, ulardan foydalanish jarayonida jismoniy va ma'naviy eskirishga duchor bo'ladi. Shu sababli, amortizatsiya qilinadigan

aktivlar qiymatini hisobot davrlari kesimida oqilona taqsimlash, ya'ni amortizatsiya hisobi orqali xarajatlar tarkibiga kiritish moliyaviy natijalarning haqqoniy shakllanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi [4] qarorida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash, jumladan, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ga o'tishni jadallashtirish hamda uning natijadorligini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar amortizatsiya qilinadigan aktivlar hisobining nazariy, me'yoriy-huquqiy, uslubiy va amaliy jihatlarini takomillashtirish zaruratini kuchaytirmoqda. Shu bois, moliyaviy hisob va soliq hisobi obyektida amortizatsiya qilinadigan aktivlar tushunchasining mazmun-mohiyatini to'g'ri talqin qilish va tasniflash axborotdan foydalanuvchilar uchun oddiy va tushunarli bo'lishini ta'minlaydi.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarda amortizatsiya qilinadigan aktivlar atamasiga qisqacha izoh keltirilgan holda tasniflash mezonlari belgilangan va moliyaviy hisobotda uzoq muddatli aktivlar sifatida tasniflanadigan aktivlar tarkibi keltirilganligini ko'rish mumkin. Xususan, 1-son BHMS «Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati»ga ko'ra korxonaning uzoq muddatli aktivlari quyidagi aktivlardan iborat bo'ladi: «tashkilot faoliyatida uzoq muddatli asosda foydalaniladigan aktivlar, jumladan tashkilotning mulki, binolari va uskunalari, nomoddiy aktivlari, kapital xarajatlari va gudvill; investitsiya maqsadida saqlab turilgan va hisobot kunidan boshlab 12 oy davomida sotilishi mumkin bo'lmagan aktivlar» [2].

Yuqoridagi BHMSda belgilangan mezonga e'tibor qaratadigan bo'lsak, birinchidan, bir xil mazmundagi jumlar takrorlanganligini ko'rishimiz mumkin, ya'ni "tashkilot faoliyatida uzoq muddatli asosda foydalaniladigan aktivlar" va "hisobot kunidan boshlab 12 oy davomida sotilishi mumkin bo'lmagan aktivlar" jumalari shaklan turlicha ifodalangan bo'lishi mumkin, lekin mazmun jihatidan bir xil ma'noga ega. Ikkinchidan, uzoq muddatli aktivlar tarkibi sifatida keltirilgan "tashkilotning mulki, binolari va uskunalari, nomoddiy aktivlari, kapital xarajatlari va gudvill" jumlasida ham noaniqlar mavjud. Jumladan, tashkilotning mulki sifatida unda sanab o'tilgan nafaqat binolar, uskunalari, balki boshqa asosiy vositalar ham, nomoddiy aktivlar va boshqa uzoq muddatli aktivlar e'tirof etiladi.

2019-yil 30-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining O'RQ-599-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan yangi tahrirdagi Soliq kodeksining 306-moddasida amortizatsiya qilinadigan aktivlar tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunchilik talablariga asosan soliq to'lovchi tomonidan hisobga olinadigan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar ushbu modda maqsadlarida amortizatsiya qilinadigan aktivlar deb e'tirof etiladi" [1]. Demak, mazkur ta'rifdan ko'rinadiki, soliq solish maqsadlarida amortizatsiya qilinadigan aktivlar tarkibi buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan mezonlar asosida shakllantiriladi. Ya'ni, amortizatsiya qilinadigan aktiv sifati faqat buxgalteriya

hisobida e'tirof etilgan va belgilangan talablarga javob beradigan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bilangina cheklanadi. Bu esa, soliq solish maqsadlarida amortizatsiya qilish obyektini belgilashda buxgalteriya hisobi qoidalari hal qiluvchi mezon sifatida qaralishini asoslaydi.

Rossiya Federatsiyasi Soliq kodeksining 256-moddasida esa, amortizatsiya qilinadigan mol-mulk tushunchasi ta'riflangan bo'lib, unga ko'ra: "amortizatsiya qilinadigan mol-mulk deb soliq to'lovchining mulk huquqi asosida unga tegishli bo'lgan hamda daromad olish maqsadida foydalaniladigan mol-mulk, intellektual faoliyat natijalari va boshqa intellektual mulk obyektlari e'tirof etiladi. Foydali xizmat qilish muddati 12 oydan ortiq va boshlang'ich qiymati 100 000 rubldan yuqori bo'lgan mol-mulk, intellektual faoliyat natijalari hamda boshqa intellektual mulk obyektlari amortizatsiya qilinadigan mol-mulk hisoblanadi" [15].

Monografik tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, amortizatsiya qilinadigan aktivlar tushunchasiga iqtisodchi olimlarning o'quv-uslubiy va ilmiy asarlarida quyidagicha yondashuvlar keltirib o'tilgan. Jumladan, V.A.Bubnov, D.A.Odaxovskaya va A.A.Pyataklar "Soliq hisobida amortizatsiya qilinadigan obyektlarga boshlang'ich qiymati yuz ming rubldan yuqori bo'lgan obyektlar kiritiladi, mazkur me'yordan past bo'lgan aktivlar, foydalanishga kiritilgan hisobot davrida tashkilot xarajatlari tarkibiga to'liq miqdorda bir martalik tarzda hisobdan chiqariladi va ularning saqlanishi ustidan belgilangan tartibda doimiy nazorat o'rnatiladi" [16] deb ta'kidlagan holda buxgalteriya hisobi va soliq hisobi qoidalariga muvofiq amortizatsiya hisoblash tartiblarining qiyosiy tavsifini hamda amortizatsiya hisoblash usullari aniq amaliy misollar asosida batafsil yoritib berishadi. Bunda mualliflar amortizatsiyalanadigan aktivlar tushunchasiga Rossiya Federatsiyasi Soliq kodeksida belgilangan me'yor doirasida o'z yondashuvlarini keltirib o'tadi.

A.I.Osipova yozishicha, "Rossiya Federatsiyasi Soliq kodeksining 256-moddasiga muvofiq, amortizatsiyalanadigan mulk deb foydali xizmat muddati bir yildan ortiq va bir birlik uchun qiymati 100 000 rubldan yuqori bo'lgan, daromad olish maqsadida foydalaniladigan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar e'tirof etiladi. Ushbu ta'rifda soliq hisobi bilan buxgalteriya hisobi o'rtasida muayyan farq mavjud. Xususan, buxgalteriya hisobiga ko'ra qiymati 40 000 rubldan ortiq bo'lgan asosiy vositalar amortizatsiyalanishi mumkin, soliq hisobida esa, qiymati mazkur me'yordan oshmaydigan asosiy vositalar foydalanishga kiritilgan paytda to'liq miqdorda tashkilot xarajatlari tarkibiga bir yo'la hisobdan chiqariladi" [18]. Shuningdek, muallif amortizatsiya qilinadigan aktivlarga amortizatsiya hisoblashni boshlash muddatlari bo'yicha ham buxgalteriya hisobi va soliq hisobidagi farqli jihatlarni keltirib o'tadi.

Kontur Ekstern ekspertlari "Amortizatsiya qilinadigan aktivlar — soliq to'lovchida mulk huquqi asosida unga tegishli bo'lgan va daromad olish uchun foydalaniladigan mol-mulk, intellektual faoliyat natijalari va boshqa intellektual mulk obyektlari" [17] dir deb ta'riflaydi. Ushbu berilgan ta'rifni quyidagicha sharhlash mumkin: birinchidan, "soliq to'lovchida mulk huquqi asosida unga tegishli bo'lgan" deganda aktivlarga nisbatan egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqlari mavjud bo'lishi nazarda tutiladi; ikkinchidan, "daromad olish uchun foydalaniladigan"

deganda aktivlar korxonaga bevosita yoki bilvosita iqtisodiy naf keltirishi ta'kidlanadi; uchinchidan "mol-mulk" tushunchasi asosiy vositalarni o'z ichiga oladi; to'rtinchidan, "intellektual faoliyat natijalari va boshqa intellektual mulk obyektlari" deganda nomoddiy aktivlar tushuniladi.

Fikrimizcha, amortizatsiya qilinadigan aktivlarga berilgan ta'rifda keltirilgan "foydalaniladigan mol-mulk" deganda faqat asosiy vositalarning tushunilishi to'g'ri yondashuv hisoblanmaydi. Chunki, nafaqat asosiy vositalar, balki korxonaning barcha aktivlari korxonaning mol-mulki sifatida tan olinadi.

K.N.Popadyuk fikriga ko'ra, amortizatsiya qilinadigan aktivlar "Bir necha hisobot davrlari davomida foydalaniladigan hamda aniq belgilangan foydali xizmat qilish muddatiga ega bo'lgan moddiy va nomoddiy aktivlarni ifodalovchi umumlashtirilgan analitik kategoriya hisoblanadi. Amaliyotda ushbu toifaga asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, shuningdek boshlang'ich qiymat modeli asosida hisobga olinadigan investitsion mulk obyektlari kiritiladi" [19]. Bizningcha, mazkur ta'rifda amortizatsiya qilinadigan aktivlar tushunchasi umumiy asoslarda ifodalab berilgan. Chunki, ularning kelgusida iqtisodiy naf keltirishi, ularga nisbatan egalik yoki nazorat huquqining mavjudligi, qiymatning foydali xizmat muddati davomida tizimli ravishda taqsimlanishi kabi mezonlar yetarlicha ochib berilmagan.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari N.R.Rizayev va F.I.Isayevlar nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblash va uni takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan tadqiqot ishlarida "... soliq to'lovchi tomonidan aktiv sifatida hisobga olinadigan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiya qilinadigan aktivlar sifatida e'tirof etiladi" [11] degan xulosa bilan cheklanadilar. Mualliflar tadqiqotlarida asosan buxgalteriya hisobining nisbatan yangi obyektlari hisoblangan nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblash tartibini takomillashtirish, amortizatsiya hisoblash usullarini qo'llash mexanizmlari, amortizatsiya summalarini tegishli xarajat obyektlariga olib borish, shuningdek, amortizatsiyani hisobga olish va uni moliyaviy hisobotlarda aks ettirish masalalari chuqur tahlil qilingan. Ushbu ilmiy izlanishlar natijasida mualliflar tomonidan nazariy jihatdan asoslangan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

K.X.Xatamov [14] asosiy vositalar hisobini takomillashtirish masalalari bo'yicha olib borgan ilmiy izlanishlari natijasida asosiy vositalarni turkumlashning takomillashtirilgan guruhlarini taklif etadi. Shuningdek, muallif asosiy vositalarni ta'mirlash bilan bog'liq xarajatlarni mahsulot tannarxiga asosli va to'g'ri kiritishni ta'minlash maqsadida ta'mirlash zaxirasi hisobidan shakllantiriladigan amortizatsiya fondini tashkil etish va uning buxgalteriya hisobini yuritish tartibini takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflarni ilgari suradi. Biroq, mazkur tadqiqotda amortizatsiya qilinadigan aktivlar tushunchasi va ularning tasniflanishiga doir mualliflik yondashuvlarini keltirib o'tmaydi.

A.S.Boltayev [6] o'z ilmiy tadqiqotlarida buxgalteriya hisobi va soliq solish maqsadlarida asosiy vositalarga eskirish (amortizatsiya) hisoblash tartibini qiyosiy tahlil qilib o'rganadi. Tadqiqot natijalariga tayangan holda muallif tadbirkorlik subyektlarida buxgalteriya hisobi va soliq solish maqsadlarida amortizatsiyani bir xil

normalarda yoki turli normalarda hisoblash, shuningdek buxgalteriya hisobi maqsadlarida Soliq kodeksida belgilangan normalardan yuqori amortizatsiya me'yorlarini qo'llash imkoniyatlarini o'zaro muvofiqlashtirish bo'yicha o'z yondashuvlarini keltirib o'tadi. Ammo, mazkur yondashuv doirasida muallif amortizatsiya qilinadigan aktivlar tarkibiga kiruvchi asosiy vositalar va biologik aktivlar bo'yicha ayrim fikr-mulohazalarni bayon etish bilan cheklanib, amortizatsiya qilinadigan aktivlar va ularning tasnifi hamda ularni e'tirof etish mezonlariga to'xtalib o'tmaydi.

G.M.Raximova ta'kidlashicha, «Hududiy elektr tarmoqlari» aksiyadorlik jamiyati xo'jalik yurituvchi subyektlarining asosiy fondlariga amortizatsiya hisoblash muammosi o'ta munozarali bo'lib, mazkur holat aniq amortizatsiya siyosati yo'qligi bilan izohlanadi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning aniq amortizatsiya siyosatini yuritilishi amortizatsiya fondi vujudga kelishining omili bo'lib, jalb qilinadigan investitsiyalarda ichki investitsiyalar hajmining 46 foizini tashkil etishini ta'minlaydi» [10]. Shuningdek, muallif amortizatsiya qilinadigan aktiv hisoblangan asosiy vositalarni turli belgilari va xususiyatlari bo'yicha tasniflaydi, hisob siyosatida asosiy vositalarni guruhlash orqali amortizatsiya koeffitsiyentlarini joriy qilishni taklif etadi.

## **METODOLOGIYA**

Amortizatsiya qilinadigan aktivlar va ularni hisobga olishning obyektiv zaruratini tadqiq qilib o'rganishda mantiqiy fikrlash, dalillar to'plash, tasavvur etish, qiyoslash, shakllantirish va muammoni qo'yish kabi nazariy-tadqiqot hamda ilmiy adabiyotlar, kuzatish kabi empirik tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Umuman olganda, yuqoridagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarda va iqtisodchi olimlarning yondashuvlarida amortizatsiyalanadigan aktivlar sifatida asosiy e'tibor asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarga qaratilgan bo'lib, ushbu aktivlarning xususiyatidan kelib chiqqan holda ta'rif va yondashuvlar shakllantirilgan. Albatta, ularning yondashuvlari ilmiy va amaliy jihatdan e'tiborga moligini ta'kidlagan holda shuni aytmoqchimizki, ular amortizatsiya qilinadigan aktivlarni soliq hisobi obyekt sifatida mazmunini to'liq ochib bermaydi. Shu bois, «amortizatsiya qilinadigan aktivlar» tushunchasiga soliq hisobi obyekt sifatida yondashishni takomillashtirish va O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 306-moddasi birinchi qismini quyidagi tahrirda bayon etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: «Ushbu Kodeksga muvofiq soliq to'lovchi amortizatsiya qilinadigan aktivlar sifatida hisobga oladigan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar ushbu Kodeks maqsadlarida amortizatsiya qilinadigan aktivlar deb e'tirof etiladi»<sup>1</sup>. Fikrimizni quyidagicha asoslaymiz:

birinchidan, Soliq kodeksi 306-moddasining oldingi tahririda [1] «amortizatsiya qilinadigan aktivlar» tushunchasi «Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunchilik» talablariga bevosita bog'liq bo'lgan. Biz tomonimizdan taklif etilgan tahrirda esa, «amortizatsiya qilinadigan aktivlar»ni e'tirof etish bevosita Soliq kodeksining o'ziga tayanilishi lozimligi belgilangan. Bu bilan amortizatsiya qilinadigan aktivlar bo'yicha

<sup>1</sup> Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

solliq va buxgalteriya hisobi o'rtasidagi me'yoriy chegaralar aniq ajratilishi ta'minlanadi;

ikkinchidan, amortizatsiya qilinadigan aktivlar bo'yicha solliq solish maqsadlarida amortizatsiya qilish mezonlarini Solliq kodeksi doirasida qat'iy belgilash imkonini beradi;

uchinchidan, "solliq to'lovchi tomonidan hisobga olinadigan" tushunchasi Solliq kodeksi va solliq to'lovchining solliq solish maqsadlarida hisob siyosatida belgilangan talablar asosida shakllanadigan tushuncha sifatida e'tirof etiladi.

Shuningdek, mazkur moddaning ikkinchi qismida "asosiy vositalar" atamasi bilan to'ldirgan holda uning solliq solish maqsadlaridagi mazmunini quyidagicha yoritib berish lozim: "O'zbekiston Respublikasida birlik (to'plam) uchun belgilangan (asosiy vosita sifatida e'tirof etilgan sanadagi), qiymati bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravari miqdoridan yuqori bo'lgan, solliq to'lovchida mulk huquqi asosida turgan (agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa) va solliq to'lovchi tomonidan tovarlarni ishlab chiqarishda (xizmatlar ko'rsatishda) yoki ma'muriy-boshqaruv ehtiyojlari uchun uzoq vaqt (davomiyligi o'n ikki oydan ortiq vaqt) mobaynida foydalaniladigan mol-mulk solliq solish maqsadlarida asosiy vosita deb e'tirof etiladi"<sup>1</sup>.

Mazkur yondashuvda keltirilgan "O'zbekiston Respublikasida birlik (to'plam) uchun belgilangan (asosiy vosita sifatida e'tirof etilgan sanadagi), qiymati bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravari miqdoridan yuqori bo'lgan" degan mezon amalda o'zgarimas qiymat sifatida talqin qilinishi munozarali holatlarni keltirib chiqarmasligi uchun ushbu moddani uchinchisi sifatida "Solliq to'lovchi solliq davri uchun solliq solish maqsadlaridagi hisob siyosatida mol-mulk qiymatini asosiy vositalar tarkibida hisobga olish uchun mol-mulkning eng kam chegarasini belgilashga haqli" jumlasini bilan to'ldirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu albatta, solliq solish maqsadlarida asosiy vositaning qiymati va undan foydalanish muddati bilan bog'liq mezonlarni aniq belgilash asosida solliq hisobida asosiy vositalarni to'g'ri tasniflashni, shuningdek, solliq to'lovchiga solliq solish maqsadlarida asosiy vositalarga nisbatan belgilangan qiymat chegarasini hisob siyosati orqali moslashtirish imkonining berilishi solliq hisobining moslashuvchanligini ta'minlaydi va solliq amaliyotida yagona yondashuvni shakllantirish imkonini beradi.

O'z navbatida, shuni ta'kidlab o'tish joizki, amortizatsiya qilinadigan aktivlarni tasniflashda solliq hisobi va buxgalteriya hisobi maqsadlarida farqlanishlar mavjudligini kuzatish mumkin. Jumladan, solliq hisobi maqsadlarida Solliq kodeksining 306-moddasida amortizatsiya qilinadigan aktivlar sifatida asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar ko'rsatib o'tilgan. Buxgalteriya hisobi maqsadlarida amortizatsiya qilinadigan aktivlar tushunchasi qo'llanilmasada, amortizatsiya hisoblanadigan aktivlar alohida hisob obyekti va moliyaviy hisobot elementi sifatida hisobga olinadi. Biroq, amortizatsiya qilinadigan aktivlarning buxgalteriya hisobi maqsadlarida tasniflanishida ham turlicha yondashuvlar mavjud. Amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar va boshqa iqtisodiy manbalarda asosan amortizatsiya qilinadigan aktivlar

---

<sup>1</sup> Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

sifatida asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar tasniflanadi. Xususan, 1-son BHMS [2] ga muvofiq asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni amortizatsiya qilinadigan aktivlar sifatida tan olish lozim.

21-son “Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma” BHMS [3] ga asosan amortizatsiyalanadigan aktivlar sifatida asosiy vositalar, moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni e‘tirof etish mumkin. Chunki, mazkur BHMSda alohida korxonaga mulki hisoblangan asosiy vositalarning eskirishini hisobga olish uchun 0200-schyotlar, moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarning eskirishi to‘g‘risida axborotlarni umumlashtirish uchun 0299-schyot hamda mulkchilik huquqi korxonaga tegishli bo‘lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni umumlashtirish uchun 0500-schyotlar belgilangan.

“Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to‘g‘risidagi Nizom” [5] ning 1-ilovasiga muvofiq BHMSga asosan yillik moliyaviy hisobotni tuzuvchi buxgalteriya hisobi subyektlari “Buxgalteriya balansi”da amortizatsiya qilinadigan aktivlar asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar ko‘rinishida tasniflangan.

MHXSga asosan yillik moliyaviy hisobotni tayyorlovchi buxgalteriya hisobi subyektlarida esa, amortizatsiya qilinadigan aktivlar yuqoridagi Nizom<sup>1</sup>ning 5-ilovasiga muvofiq asosiy vositalar, foydalanish huquqidagi aktivlar, investitsiya ko‘chmas mulki, nomoddiy aktivlar, uzoq muddatli biologik aktivlar, va boshqa uzoq muddatli aktivlar sifatida tasniflab berilgan.


Albatta, bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodchi olimlari R.D.Dusmuratov [7], Z.N.Qurbanov [8], U.K.Urazov [13], S.N.Tashnazarov [12], N.K.Rizayev [11], B.Yu.Menglikulov [9], A.S.Boltayev [6], K.X. Xatamov [14], G.M.Raximova [10] va boshqalarning ilmiy va o‘quv-uslubiy ishlarida aynan amortizatsiya qilinadigan aktivlar emas, balki ularning tarkibiy tuzilmasiga kiruvchi asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni turli belgilari va mezonlar, ya’ni elementlari, guruhlari, operatsion jarayonda qatnashishi, shakllantirish manbalari, joylashishi, foydalanish muddatlari, buxgalteriya hisobi obyekt va moliyaviy hisobot elementi bo‘yicha tasniflash borasida o‘z yondashuvlarini keltirib o‘tganliklarini kuzatish mumkin. Shubhasiz, bunday tasnifiy belgilar bo‘yicha kichik guruhlarga ajratgan holda tasniflash e‘tirofga molik hisoblanadi. Biroq, amortizatsiya qilinadigan aktivlarni soliq hisobi maqsadlarida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida tasniflash va hisob siyosatida aks ettirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Shu bois, monogarfik tadqiqot obyektlari bo‘lgan buxgalteriya hisobi subyektlarida soliq hisobi maqsadlarida amortizatsiya qilinadigan aktivlarni quyidagicha tasniflashni taklif etamiz (rasm).

Fikrimizcha, amortizatsiya qilinadigan aktivlarni soliq hisobi maqsadlarida

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 8-oktyabrdagi 181-son buyrug‘iga 1-ILOVA «Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to‘g‘risidagi NIZOM». <https://lex.uz/uz/docs/7194594#7203542>

MHXS asosida tarkibiy tuzilmasini yuqoridagi kabi tasniflash, buxgalteriya va soliq hisobi o‘rtasidagi uslubiy tafovutlarni kamaytirish imkoni beradi. Bu esa, o‘z navbatida hisob ma’lumotlarining taqqoslanuvchanligini va moliyaviy hisobot axborotlarining shaffofligini yanada oshirishni hamda aktivlar qiymatining iqtisodiy mazmuniga mos ravishda e’tirof etilishini ta’minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, soliq hisobida qo‘llaniladigan amortizatsiya usullari va muddatlarini iqtisodiy naf keltirish davri bilan uyg‘unlashtirishga imkon beradi.



**1-rasm. Soliq hisobi maqsadlarida amortizatsiya qilinadigan aktivlarning tasniflanishi<sup>1</sup>**

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Shunday qilib, amortizatsiya qilinadigan aktivlarning iqtisodiy mohiyati va ularni hisobga olishning obyektiv zarurati bo‘yicha olib borilgan izlanishlar asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

amaldagi me‘yoriy-huquqiy hujjatlar hamda iqtisodiy manbalardan keltirilgan ta’riflar va yondashuvlar tadqiq qilingan holda soliq hisobi maqsadlarida “amortizatsiya qilinadigan aktivlar” tushunchasiga mualliflik yondashuvi shakllantirildi. Shu bilan birga, taklif qilingan mualliflik yondashuvining tadqiq qilib o‘rganilgan manbalarda keltirilgan ta’riflar va yondashuvlardan farqli jihatlari asoslab berildi;

soliq solish maqsadlarida “asosiy vositalar” tushunchasiga mualliflik yondashuvi ishlab chiqildi va mazkur yondashuv asosida Soliq kodeksi 306-moddasining ikkinchi qismi sifatida to‘ldirish taklif etildi. Bu albatta, asosiy vositaning qiymati va undan foydalanish muddati bilan bog‘liq mezonlarni aniq belgilash asosida soliq hisobida

<sup>1</sup> Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

asosiy vositalarni to'g'ri tasniflash, tan olish va baholash borasida yagona yondashuvni shakllantirish imkonini beradi;

amortizatsiya qilinadigan aktivlarning tarkibiy tuzilmasi bo'yicha amalga oshirilgan izlanishlar natijasida, soliq hisobi maqsadlarida amortizatsiya qilinadigan aktivlarni takomillashtirilgan tasnifi taklif etildi. Fikrimizcha, taklif etilayotgan amortizatsiya qilinadigan aktivlarning tasniflanishi, buxgalteriya va soliq hisobi o'rtasidagi uslubiy tafovutlarni kamaytirish imkonini beradi. Shuningdek, amortizatsiya qilinadigan aktivlarni soliq hisobi va hisobotida aks ettirish bilan bog'liq axborotlarning o'rinliliigi, batafsilligi va ishonchliligini ta'minlaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. (O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrda O'RQ-599-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan). <https://lex.uz/docs/4674902?ONDATE=01.01.2025>
2. Buxgalteriya hisobining milliy standarti (1-sonli BHMS) "Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati". <https://www.lex.uz/acts/7050497>
3. Buxgalteriya hisobining milliy standarti (21-son BHMS) "Xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma". <https://lex.uz/mact/7282737>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobot xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-son qarori. <https://lex.uz/docs/4746047>
5. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 8-oktyabrdagi 181-son buyrug'iga 1-ILOVA «Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to'g'risidagi NIZOM». <https://lex.uz/uz/docs/7194594>
6. Boltayev A.S. Qishloq xo'jaligi faoliyati hisobining metodologiyasini takomillashtirish. Ilmiy monografiya. – T.: "Demal" nashriyoti, 2024-y. – 152 b.
7. Do'smurotov R.D., U.I.To'layev. Moliyaviy hisobot: nazariya, uslubiy va amaliy jihatlari. Monografiya. – T.: "Extremum-Press", 2012. – 144 b.
8. Kurbanov Z.N. Asosiy vositalarning buxgalteriya hisobining dolzarb masalalari. "Ekonomika i sotsium" №6(85) ch.1 2021. 752-762 betlar.
9. Menglikulov B.Yu. Biologik aktivlarni tan olish va hisobini tashkil etish masalalari. "Moliya va bank ishi" ilmiy elektron jurnali. 2019 / 5-son. 120-123 betlar.
10. Raximova G.M. Asosiy vositalar hisobi metodologiyasini takomillashtirish. I.f.d. (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2025. – 25 b.
11. Rizayev N.R., Isayev F.I. Nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblash va uni takomillashtirish. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2024-yil, IV-son may. 597-609 betlar.
12. Tashnazarov S.N. Buxgalteriya balansini xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2016. – 6 b.

13. Urazov K.B., Muydinov E.D. Asosiy vositalarga doir moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: tasnifi, tarkibi, maqsadi va amaliyotda qo‘llash doiralari. “Servis” ilmiy-amaliy jurnal. 2022-yil, №3. 169-172 betlar.

14. Xatamov K.X. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida asosiy vositalar hisobi va auditini takomillashtirish. i.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2019. – 25 b.

15. Налоговый кодекс Российской Федерации (НК РФ). <https://nalog.garant.ru>

16. Бубнов В.А., Одаховская Д.А., Пятак А.А. Налоговый учет основных средств организации. Baikal Research Journal 2022. Т. 13, № 2. DOI 10.17150/2411-6262.2022.13(2).2. <https://brj-bguerp.ru/reader/article.aspx?id=25107>

17. Контур Экстерн. Амортизируемые активы. [https://www.kontur-extern.ru/info/46125-amortiziruemye\\_aktivy](https://www.kontur-extern.ru/info/46125-amortiziruemye_aktivy)

18. Осипова А.И. Особенности налогового учета амортизируемого имущества. Форум молодых ученых 3(55) 2021. 87-89 с. <http://forum-nauka.ru>

19. Попадюк К.Н. Амортизируемые активы. Электронный ресурс. [www.inflexio.ru](http://www.inflexio.ru)



# Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

<b>Muharrir:</b>	Xakimov Ziyodulla Axmadovich
<b>Ingliz tili muharriri:</b>	Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
<b>Rus tili muharriri:</b>	Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
<b>Musahhih:</b>	Karimova Shirin Zoxid qizi
<b>Sahifalovchi va dizaynerlar:</b>	Sadikov Shoxrux Shuxratovich Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2025-yil, dekabr, 12-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: [info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)  
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)  
Tel.: +998977838464, +998939266610  
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**